

OILADA AYOLLARNING IJTIMOY VA ETNOPSIXOLOGIK MOSLASHISH JARAYONLARI.

Soyibjonova Muhlisaxon Azizbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar fakulteti, kimyo yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ayolning – xotin-qizlarning jamiyat va oilada tutgan maqomlarining o’zgarib borayotganligi, ular malakalarining oshib borayotganligi va kasb-hunar, lavozim pog’onalari erkaklardan qolishmaslikka intilayotganligi bilan izohlanadi. Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, intellektual, ishbilarmonlik salohiyatini rivojlantirishga ko’maklashish hamda tashabbuslarini rag’batlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlar opa-singillarimizning oila va jamiyatdagi mavqei yuksalib borishiga zamin yaratmoqda. Har bir qiz turmushga chiqar ekan yangi oila ostonasiga ulkan orzu-umidlar bilan qadam qo’yadi. U misoli bir navnihol. Kelinchakni oilada nafaqat turmush o’rtog’i, balki qaynona va shu oilaning boshqa a’zolari ham do’stona qo’llab-quvvatlashi zarur.

Kalit so’zlar: Xotin-qizlarning ijtimoiylashuvi, ayollar faolligi, oilaga moslashuv, temprament, yosh oila.

Barkamol avlod tarbiyasida xotin-qizlarning ijtimoiylashuv muammolari ijobiy hal etilishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning yechimini topishda, balki yangi jamiyat quruvchilarni tarbiyalash ishlarini to’g’ri tashkillashtirish va amalga oshirish borasida ham ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli bugungi kunda inson, shaxs muammosi jamiyat miqyosida ham, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ham eng dolzarb masalalar darajasiga ko’tarildi. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish ko’p qirrali, murakkab hodisa bo’lib, bu ularning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog’liq bo’lgan muhim va o’ziga xos jihatlardan biridir. Tabiiyki, muammoning nafaqat mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish konsepsiyasi orqali o’rganilishi, balki yangi ma’naviy-axloqiy tamoyillar, yangi innovatsion texnologiyalar va jarayonlar orqali o’rganilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faoliyati haqidagi qarashlar va ta’limotlar G’arb hamda Sharq falsafiy taraqqiyotida muhim o’rin egallaydi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy faolligiga ta’sir ko’rsatuvchi muhim omillardan biri ular faoliyat yuritayotgan mehnat jamoasidagi boshqaruvning qanday xarakterga egaligi bo’lib bu, asosan, rahbarlarning boshqaruv madaniyati, usul va vositalariga bog’liq bo’ladi. Rahbar mehnat jamoasidagi muhitni qanchalik erkinlashtirsa, ayollarimizning nozik jins vakillari ekanligini his qilib tursa va ular faoliyatini modernizatsiyalashga oid tashabbuslarni qo’llab-quvvatlasa, ularni amalga oshirishda o’rnak ko’rsata olsa, ayollarning jamoadagi faolligiga ta’sir qila oladi va bu o’z-o’zidan ularning siyosiy faolligini yanada oshishiga turtki bo’ladi.

Ayollar faolligini oshirishda ruhiy holat muhim rol o’ynaydi. Agar ayollar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalarida faoliyatni amalga oshirish uchun ruhiy jihatdan tayyor bo’lmasa ular o’rtasida olib borilayotgan tadbirlar o’zining kutilgan natijasini bermaydi. Shunga ko’ra, ayollar faolligi quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

- dunyoyarashni boyituvchi va mutaxassislik bilimlariga ega bo’lish;
- ma’naviy-ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish;
- ma’naviy faoliyatning ko’lami va mazmuni;
- ma’naviy-ijtimoiy vaziyatlarni baholay olish;
- ma’naviy-ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda ongliklik, g’oyaviylik, vatanparvarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, insonparvarlik, baynalminallik, ishchanlik, tezkorlik, erkin fikr yuritish, ijodkorlik, ma’suliyatni his etish kabi xislatlarni namoyon etish va boshqalar.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “har qaysi oilada go’zallik va nafosat, mehr-muhabbat timsoli, xonadonlarimiz osoyishtaligining posboni bo’lmish, bir so’z bilan aytganda, oilani oilaga, jamiyatimizni jamiyatga aylantiradigan ayol zotiga qancha tasannolar aytsak, qancha ta’zim etsak, baribir, barchamiz o’zimizni ular oldida doimo qarzdor deb his qilamiz. Inson oila qurar ekan ahilinoq yashab, murod-maqsadga yetishishni orzu qiladi, nikoh arafasida barcha yaqin birodarlar, qarindosh - urug’lar, to’yga taklif buyurgan mehmonlar yoshlarga ezgu niyatlar bildiradilar.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Shuningdek, yoshlar oila qurish arafasida va nikohlarining dastlabki kunlarida turmush o‘rtog‘ining timsolida, o‘zining shu orzu-istaklariga, murod -maqsadlariga yetishishda yordam beruvchi, uni qo‘lab - quvvatlovchi, uni har soniya, har onda tushunuvchi o‘z tabiatiga yaqin odamini tasavvur qiladi va unga imkon qadar shunday ijobiy, iliq munosabatda bo‘lishga harakat qiladi.

Biroq hayotda, ayniqsa, oilaviy hayotda hamma narsa ham odam kutganidayin bo‘lavermaydi. Oilaviy hayotning o‘ziga yarasha notekisliklari, past –balandliklari, murakkabliklari, muammolari bo‘ladi. Shunday murakkabliklardan biri yosh er - xotinning yangi ijtimoiy statusga, mavqega : er, kuyov uylangan oilali yigit, xotin, kelin, turmushga chiqqan ayol rollariga, o‘zlari uchun yangi bo‘lgan ijtimoiy muhitga, yangi oilaga moslashish jarayoni bilan bog‘liqi. Xo‘sh bu yangi sharoitlarga moslashish jarayoni kimda qanday kechadi? Albatta, bu jarayon erkaklarda ayollarga nisbatan yengilroq kechadi. Chunki ular, o‘zbek oilasining etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aksariyat hollarda erning uyida, uning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan yashaydi. Yan‘ni yigit uylanganidan keyin ham o‘z oilasida, o‘z yaqinlari va o‘zi uchun oldindan odat bo‘lib qolgan oilaviy, shaxslararo munosabatlar tizimida qoladi. Ayol kishining esa nikohdan keyingi holati, oldingisidan keskin farq qiladi. Birinchidan, u o‘zi uchun deyarli yangi bo‘lgan, oldingisidan tubdan farq qiladigan muhitga tushadi. U o‘ziga xos shaxslararo munosabatlar tizimi, rollar taqsimoti, o‘ziga xos «xulqqa» ega bo‘lgan o‘zining qizlik oilasidan, boshqa bir oilaga, boshqacha bir shaxslararo munosabatlar tizimiga ega bo‘lgan yangi oilaviy muhitga tushadi. Undagi mavjud turmush tarzi oldingisiga mos tushmaydi, bundagi oilaviy rollar taqsimoti ham oldingisiga o‘xshamaydi, u yerdagi ma‘lum irishni bajarish tartibi, u yoki bu ishga qo‘yiladigan talablar ham oldingisiga o‘xshamaydi. Buning ustiga yosh oilada yosh kelin zimmasiga yuklatiladigan vazifalar ham uni qizlik vaqtida bajaradigan ishlaridan ham miqdor, ham mazmun jihatdan tubdan farq qiladi. Yangi ijtimoiy sharoitga moslashish jarayonining o‘zbek oilalarida ayol kishi uchun qiyin kechishining asosiy sabablaridan yana biri unda yosh kelin yuqorida aytib o‘tilgan vaziyatlarga tushishi bilan birga ularda bu yangi oilada kelin o‘zini «begona» deb his etishidir, ya‘ni undagi «begonalik effekti»ning mavjudligidir.

Yuqorida keltirib o‘tilganlardan ko‘rinib turibdiki, yosh oila yuzaga kelganidan so‘ng unda er-xotin munosabatlarining «kutilganidek» rivojlanishiga xalaqit qiladigan ko‘plab ijtimoiy psixologik, etnik, hududiy, jinsiy omillar borki, yoshlarimiz bularning barchasi haqida oldindan xabardor bo‘lishligi va ularning salbiy ta‘sirini yumshatib, ijobiy jihatlarini rivojlantirishga tayyor bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, eng ezgu niyatlar bilan oila qurgan yoshlarda er-xotinning shaxsiy munosabatlari baxtga qarshi yaxshidan yomonga qarab rivojlana boshlaydi. Chunki nikohning boshida kuzatiladigan er-xotin o‘rtasidagi ko‘tarinki emotsional yaqinlik asta-sekinlik bilan pasayib, ularda hissiyotlarining o‘tmaslashuvi ro‘y beradi. Bu holatlar albatta har qanday oilada shaxslararo munosabatlarni rivojlanishining o‘ziga xos dinamikasini tashkil qiladi. Bu holatdan voqif bo‘lish va uning o‘zgarishlariga tayyor turish yosh oilalarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ayrim ko‘ngilsizliklarning oldini olishga asos bo‘ladi.

Shuningdek, kelinning yangi oilaga moslashishi uning mijozi turiga ham bog‘liq. Masalan, ko‘proq xolerik mijozga mansub bo‘lanlar tez moslashadilar. Biroq yengilroq, tezroq va andishasiz kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyinroq kechadi. Yangi sharoitga oson moslashadigan hamda uni osongina o‘zlashtirishga tayyor bo‘lganlar sangvinik mijozdir. Flegmatik mijoz esa vazmin, og‘ir karvon bo‘lgani uchun yangi oila sharoitiga sekinlik bilan moslashadi. Bir moslashib olganidan keyin esa uni o‘zgartirishni sira-sira istamaydi, uncha-muncha gap-so‘zga parvo qilmaydi. Melanxolik mijozlar ham shunga yaqin. Ammo sal narsadan ularning ruhi tushib ketadi, bo‘lar-bo‘lmamasga xafa bo‘laveradi. Ruhijihatdan esa nihoyatda sezgir bo‘lishadi. Ayol, avalambor, ona. Farzandlariga chiroyli tarbiya, go‘zal xulq berish – ularning kasbi. Maqomi, martabasi shu bilan o‘lchanadi. Binobarin, mamlakat taqdiri shunga bog‘liq.

Shunga asoslanib aytish mumkinki, ayol ma‘naviyati va oila ma‘naviyati o‘xshash, uyg‘un, mushtarak tushunchalardir. Demak, allani ona suti bilan birga hazm qilgan, tarbiyani oilada olgan, mahallada chiniqqan bola vatan qadrini biladi, oila – nikoh muqaddasligini anglaydi. Tabiiyki, oilaviy ajrimlar soni keskin kamayib, ongu tafakkurda benazir, tiyran nigohli insonlar salmog‘i ortadi. Tarbiya – egasiga qaytuvchi jarayon. Kim nimani o‘zi uchun kutsa, shuni bolasiga bersin: oqibat istagan oqibat, mehr sog‘ingan mehr... Bu fazilatlar ayollarga xos nazokat, hayo, samimiylik,

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

kamtarlik, oqilalik, uddaburonlik, tadbirkorlik... bilan egasiga yetkazilar ekan u kamolotdek, vafodek o‘ziga jinsdosh xislatlarni yetaklab keladi. Insoniyat yaralibdiki, shunga intiladi, orzu qiladi. Xullas, ayol ma’naviyati bugun millat ma’naviyatiga aylandi. Unga befarq qarashga hech kimning haqqi yo‘q.

Ayol nafaqat bugungi kundagi maqomi va jamiyatdagi obro‘yi eng avvalo uning oilasidagi o‘rni, oila qadriyatiga munosabati hamda farzandlari tarbiyasidagi muvaffaqiyatlariga bog‘liq ekanini chuqur anglashimiz zarur. Ayolning baxtli bo‘lishi nafaqat oilada, balki butun jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Uni e’zozlagan va hurmat qilgan millatning kelajagi bardavom bo‘ladi.

Alisher Navoiyning ushbu benihoya ma’noli so‘zlari asosida ayol kishining oiladagi o‘rni oila shakllanishida katta ahamiyat kasb etishini bilsak bo‘ladi: «Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo‘lsa – ko‘ngil yozig‘i, hushmuomala bo‘lsa – jon ozig‘idir. Tili achchiq bo‘lsa barchaning dilini yaralaydi. Pokiza bo‘lmasa, erining yuziga qoralik keltiradi, mayxo‘r bo‘lsa uy odobi yo‘qoladi, axloqsiz bo‘lsa oila parokanda bo‘ladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sayyora Djasanova. Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faolligi. Toshkent: “Tafakkur qanoti”, 2014.- 96 b.

2. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma / G. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog‘inov va boshq.; G‘. B. Shoumarovning tahriri ostida; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. — T.: «Sharq», 2008. — 296 b.

3. D. Abdullaeva, R. Yorqulov, N. Atabaeva. Oila psixologiyasi [M atn]: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. -256b

4. <https://yuz.uz/uz/news/ayol-olamni-gozal-mehrli-va-adolatli-qilish-uchun-yaratilgan>.